

QALBI O`ZBEK RUS SHOIRI

Jalolova Gulsanam To'liqinjon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti
Xalqaro Jurnalistika Fakulteti 1-bosqich talabasi.E-mail: @jalolovagulsanam9@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.18611998>

Annotatsiya. Har bir o'zbek yozuvchilarining asarlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek O'zbekistonda shoir, yozuvchi hamda tarjimonlar juda ko'p. Ammo ulardan biri millati boshqa bo'la turib yuragi o'zbek bo'lib urayotgan ruzsiyzabon shoir va tarjimon Aleksandr Arkadyevich Faynberg deb aytaolamiz. Hozirgi kunda Faynbergning tarjimalari nafaqat O'zbekistonda balki, dunyo miqyosida hamtan olinib kelinmoqda. Ushbu maqolada rus shoiri va o'zbek xalq shoiri Aleksandr Arkadyevich Faynbergning hayot yo'llari, asarlari hamda she'rlarining ma'nosi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlari: tarjimon, Rossiya, shoir, asarlari, she'rlari, Toshkent.

Аннотация. Творчество каждого узбекского писателя имеет огромное значение.

В Узбекистане также много поэтов, писателей и переводчиков. Но одним из них является русскоязычный поэт и переводчик Александр Аркадьевич Файнберг, который, несмотря на другую национальность, остается узбеком в душе. Сегодня переводы Файнберга признаны не только в Узбекистане, но и во всем мире. В данной статье представлена подробная информация о жизненном пути, творчестве и смысле стихов русского поэта и узбекского народного поэта Александра Аркадьевича Файнберга.

Ключевые слова: переводчик, Россия, поэт, произведения, стихи, Ташкент

Abstract. The work of every Uzbek writer is of great significance. Uzbekistan also boasts many poets, writers, and translators. But one of them is the Russian-language poet and translator Alexander Arkadyevich Fainberg, who, despite his ethnicity, remains Uzbek at heart.

Today, Fainberg's translations are recognized not only in Uzbekistan but throughout the world. This article provides detailed information about the life, work, and poetry of the Russian poet and Uzbek folk poet Alexander Arkadyevich Fainberg.

Keywords: translator, Russia, poet, works, poems, Tashkent

Abstract. L'opera di ogni scrittore uzbeko è di grande importanza. L'Uzbekistan vanta anche numerosi poeti, scrittori e traduttori. Ma uno di questi è il poeta e traduttore di lingua russa Aleksandr Arkad'evič Fainberg, che, nonostante la sua etnia, rimane uzbeko nel cuore.

Oggi, le traduzioni di Fainberg sono riconosciute non solo in Uzbekistan, ma in tutto il mondo. Questo articolo fornisce informazioni dettagliate sulla vita, l'opera e la poesia del poeta russo e poeta popolare uzbeko Aleksandr Arkad'evič Fainberg.

Parole chiave: traduttore, Russia, poeta, opere, poesie, Tashkent.

Aleksandr Arkadyevich Faynberg Aleksandr Arkadyevich 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Ota-onasi tug'ilishidan ikki yil avval Rossiyaning Novosibirskdan ko'chib kelgan. Yozuvchining otasi Arkadiy Lvovich Faynberg (1891–1971), asli Gatchinalik, texnologiya institutni tamomlagan va spirt zavodida bosh muhandis bo'lib ishlagan. Onasi Anastasiya Aleksandrovna 1904-yil, Moskvada tug'ilgan, lekin vafot etgan yili aniq emas.

Keyin esa spirt zavodida mashinist bo'lib ishlagan. Arkadiy yetti yillik maktabni tugatgach, Toshkent topografiya texnikumiga o'qishga kirgan va tehnikumida o'qib yurgan paytlaridanoq geolog sifatida butun bir dunyoni kezib chiqdi va uning qaynoq qalblarida ona

tabiatga bo'lgan muhabbat uyg'ondi. Aynan shu davrda uning birinchi "Velosiped yo'lakchasi" nomli kitobi nashrdan chiqdi. Tehnikumni tamomlagandan so'ng, Tojikistonda harbiy xizmatni o'tagan. Keyin 1965-yilda Toshkent universitetini tugatib, hozirgi (O'zbekiston Milliy Universiteti) filologiya fakultetining jurnalistika fakultetining sirtqi bo'limida ta'lim olgan va talabalar gazetasida ishlagan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lib ishlagan va uzoq yillar davomida yosh yozuvchilar seminariga rahbarlik qilgan. 1961-yilda Inna Glebova Koval bilan turmush qurgan.

O'zbeklarning yuragidan joy olgan Faynbergning asarlari G'arb va Sharq madaniyati uyg'unligi bilan ajralib turadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Aleksandr Faynberg O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi va o'n beshta she'riy to'plam (jumladan, o'limidan so'ng nashr etilgan ikki jildlik asarning o'zi tuzgan) muallifi edi. She'rlari „Smena“, „Yoshlik“, „Yangi dunyo“, „Sharq yulduzi“, „Yangi Volga“ jurnallarida hamda xorijiy mamlakatlar: AQSh, Kanada, Isroilning davriy nashrlarida chop etilgan. Faynberg 1965–1969-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lgan. „Etyud“ (1967), „Soniya“ (1969), „She'rlar“ (1977), „O'lis ko'priklar“ (1978), „Ijobat“ (1982), „Qisqa to'lqin“ (1983), „Yoyma to'r“ (1984), „Erkin sonetlar“ (1990) va boshqa she'riy to'plamlar muallifi. AQSH, Kanada va Isroil davriy jurnallarida chop etilgan. U rusiyazon kitobxonlarga ko'plab o'zbek shoirlarining asarlarini tarjima qilib berdi. Moskvada O'zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" poemasi, Toshkentda "Oqqushlar galasi" nomli o'zbek shoirlari ijodidan qilingan tarjimalar jamlanmasi nashr etildi. Faynbergning she'riy ijodida o'tmish bilan hozirgi kun, G'arb bilan Sharq milliyligi va baynalmilalchiligi o'zaro tutashib, o'ziga xos badiiy olamni vujudga keltiradi. Faynbergning lirik qahramoni tarixiy-ijtimoiy silsilalar asrida o'zining insoniy mohiyatini to'la saqlab qolgan, o'zgaga mehr-shafqat va madad qo'lini uzatishga tayyor, yer kurrasida sodir bo'layotgan noxush voqea va hodisalardan iztirob chekuvchi insondir. She'riy ijodida rus va Yevropa shoirlarining eng yaxshi badiiy tajribalari namoyon bo'lgan. Sharq mumtoz she'riyati an'analari ham uning ijodiy uslubiga begona emas. Faynberg ijodining muhim qismini badiiy tarjima tashkil etadi. O'zbek she'riyatini mukammal bilgan shoir Navoiy g'azallari, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon va boshqa o'zbek shoirlarining she'r va dostonlarini rus tiliga tarjima qilgan. Faynberg ssenariysi asosida "O'zbekfilm" kinostudiyasida „Mening akam“, „Jazirama oftob tagida“, „Qandahorda toblanganlar“, „Tojikfilm“ kinostudiyasida esa „Jinoyatchi va oqlovchilar“ va boshqa filmlari suratga olingan. Faynberg ssenariysi asosida to'rtta to'liq metrajli badiiy film va 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan. 1999-yilda „Paxtakor“ futbol jamoasining avtohalokatda halok bo'lganining yigirma yilligi munosabati bilan uning ssenariysi bo'yicha „Osmondagi stadion“ filmi suratga olingan. Faynberg 1979-yilda „Paxtakor“ jamoasi haqida yozilgan qo'shig'i yangragan. Faynberg bir necha yil davomida Toshkentda O'zbekiston yosh yozuvchilari seminariga rahbarlik qilgan. „Issiq quyosh ostidagi uy“ (1977, „O'zbekfilm“) filmining ssenariy muallifi. 2004-yilda O'zbekiston xalq shoiri, Kinematografiya uyushmasi a'zosi Aleksandr Faynberg Rossiya davlatining prezidenti Vladimirovich Putin farmoni bilan madaniy aloqalarni rivojlantirish, rus tili va rus madaniyatini saqlashga qo'shgan ulkan hissasi uchun "Pushkin medali" mukofotga sazovor bo'ladi. Uning 7 ta badiiy film ssenariysi tegishli bo'lib, eng muhimlari "Ko'k osmonning o'zida", "Issiq quyosh ostidagi uy", "Qandahor ostida yonib ketgan", shuningdek u 18 ta animation film ssenariylari muallifi. Bundan tashqari esa "Issiq quyosh ostidagi uy" (1997, "O'zbekfilm") filmining ssenariy muallifi. 2009-yil 14-oktabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

Toshkentdagi Botkin qabristonining bo'limiga dafn etilgan. G. V. Malixinaning „A. A. Faynberg lirikasidagi badiiy obrazlar va tematik dominantlar tuzilishi“ (O'zbekiston Milliy universiteti, 2007) magistrlik dissertatsiyasi Faynberg ijodini o'rganishga bag'ishlangan.

Aleksandr Arkadyevich Faynberg- taniqli yozuvchi, ajoyib shoir.

Abdulla Oripov va Xosiyat Rustamova , Sirojiddin Said va Omon Matjon va boshqa shoirlarning she'rlarini va dostonlarini rus tiliga tarjima qilgan. Aleksandr Faynberg G'azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiyning asarlarini rus tiliga 10 jildini tarjima qilgan va nashr ettirgan. “Rubayat yorlari” she'rida u o'zbek choyxonasini o'zgarmas palov bilan shunday tasvirlaganki, uni tabassumsiz tabassumsiz o'qib bo'lmaydi. Shoirning she'riy ijodida o'tmish bilan hozirgi kunni taqqoslasak, o'zbek xalqining mehr-oqibati, insonlarga bo'lgan muhabbatini ko'rishimiz mumkin. O'zbek shoiri Abdulla Oripov aytadiki: “Aleksandr Faynbergning ijodiga kelsak barcha baland so'zlar haqiqatning yuzdan bir qismini aks ettirmaydi, chunki u aslida noyob shoir va tarjimon edi. Jahon darajasidagi yozuvchi rus tilida so'zlashadigan yozuvchilardan hech biri bizning quyoshli diyorumizga samimiy qo'shiq kuylashi mumkin emas “-deb ta'riflagan.

Shoir chin yurakdan sermahsul ijod qilgan. Uning ijodining rang-barangligi, teranligi va falsafiyligi bilan insonlar qalbini zabt etgan.

QORALAMALAR QASIDASI

Shoir, shu borliqda tong chog'i ochil,
 Boshqa yo'l tanlama qabrga qadar.
 Yerning jamoliga maftun, oshiq bo'l,
 Sevib – sevib kuyla, tangri madadkor.
 Biroq, shoir, oqqa ko'chirmalaring
 Bari ham diltortar, jilvagar dema.
 Sirtga qalqib chiqar barisi bir kun.
 Bir umr qulflangan qoralamalar
 Kabi hech kim senga bo'lolmas sodiq.
 Unda – kitoblarning qoni, tomiri,
 U – ijod, jasorat, yo'lboshchi yoniq.
 Ular olib kelar senga shon – shuhrat,
 Tungi qoralama – ko'z yoshday egik.
 Qoralama... oddiy ko'rinar, hech vaqt
 Hiyonat qilmaslar – kechirmaslar lek
 Axir, bunda so'zlar, harflar emas,
 Ko'zga ham ilg'anmas yulduz tovushi.
 Unda – Haqqa yetar ko'rinmas rishta,
 Shoir, shu rishtani asra, albatta.
 Yodlamoq mumkindir she'rlarni
 Ammo –
 Lahzalar betakror sado.
 So'zlar, qofiyadosh emassiz, asli —
 Qondosh og'a – ini.
 Men parvoz tilayman sizlarga baland,
 Ko'zni yummay turib yoqib bo'lmaydi
 Faqat, faqat qoralamani.

Shoir, tarjimon o'z vatanining haqiqiy vatanparvarligi timsoli. Faynbergning xotirasi qalbimizda mangu qoladi. Uning she'riy to'plamlari hozirgi kungacha qo'lma-qo'l bo'lib kelmoqda, matnlari orqali qo'shiq kuylanmoqda va ssenariylari asosida yigirmadan ortiq nasriy asarlar, multifilmlar muallifi. Uning hayoti bilan bog'liq sanalar har yili nishonlanadi, shuningdek, she'riy kechalar va tadbirlar o'tkaziladi.

Shoir xotirasini abadiylashtirish maqsadida Toshkent shahrining adiblar xiyobonida Faynbergning haykali o'rnatildi. Bundan tashqari esa O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetiga, Aleksandr Arkadyevich Faynberg nomidagi maxsus stipendiya ham joriy etildi. Mohir tarjimon ssenariynavis Aleksandr Faynberg qalbimizda mangu qoladi. Yozuvchi, shoir Faynberg 2009-yil 14-oktyabr kuni Toshkent shahrida vafot etadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Malixina G. Poeticheskiy priisk Aleksandra Faynberga. – T., 2014. Faynberg A. Ishq degani bir qarashda tuyular oson... She'rlar //
2. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
3. URL: n.ziyouz.com
4. URL: <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
5. URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
6. URL: <https://arboblar.uz/uz/people/faynberg-aleksandr-arkadevich> URL:
7. <https://arboblar.uz/uz/people/faynberg-aleksandr-arkadevich> Meliqo'ziyeva Z. (aprel 2023).
8. O'zbek va rus yozuvchisi Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti, ijodining bugungi kundagi ahamiyati. Scientific Impulse, 1(9), P.770-772.
9. O'ralov U. (dekabr 2022). O'zbek xalqining chin do'sti, tarjimon va shoir – Aleksandr Faynberg. Pedagog (4), B.745-747.
10. Odinayev A. (iyun 2023).
11. O'zbek adabiyotida Aleksandr Faynberg ijodining o'rganilishi. Education and Innovation, 2(6), P.118-121.
12. Ibrohimova M. (fevral 2023). Faynberg va uning adabiy borlig'i. Scientific Impulse, 1(7), P.338-339.